



BOSH LEKSEMASINING O'ZBEK VA TURK TILLARIDAGI MA'NOLAR QIYOSI

Feruza Rahmatova

ToshDO'TAU tayanch doktoranti

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8103499>

ARTICLE INFO

Received: 24th June 2023

Accepted: 29th June 2023

Online: 30th June 2023

KEY WORDS

Somatizmlar, frazeologizmlar, polisemantik xususiyat, eston tili, turkiy tillar.

ABSTRACT

Somatizmlar - bu inson yoki hayvon tanasi qismlarining asl ma'nosiga ega bo'lgan otlar. Tilshunoslikda inson tana a'zolari nomlariga nisbatan qo'llaniladigan "somatizm" atamasi ilk bor eston tili frazeologizmlarini o'rgangan olim F.Bakk tomonidan qo'llanilgan. U «somatizmlar frazeologiyaning eng qadimgi qatlamlaridan biriga tegishli va har qanday til so'z boyligining eng ko'p ishlatiladigan qismini tashkil qiladi» degan fikrni aytgan [F.O.Vakk 1964]. D.Bazarova esa turkiy tillarning somatizmlarini taqqoslashga bag'ishlangan bir qator ilmiy izlanishlarni olib borgan. A.M. Kochevatkin ning "Соматическая лексика в диалектах эрзянского языка", A.V. Projilovning "Соматические состояния человека и их языковая онтология в современном немецком языке", Timea Chetening "Соматические фразеологизмы в русском и венгерском языках" nomli ilmiy ishlarida somatizmlar turli aspektlarda tahlil qilingan.

Qator ilmiy ishlarda somatizmlar frazeologizmlar doirasida o'rganilgan. O'zbek tilida somatizmlar borasida qilingan ilmiy ishlarning aksariyati Somatik frazeologik birliklarning tadqiqiga bag'ishlangan. A.Isayev "O'zbek tilining somatik frazeologik birliklari" (1976) ilmiy tadqiqotida somatizmlarni ularning sinonimi, antonimikasi, omonimiyasi va tilning kommunikativ funksiyasi nuqtai nazardan o'rgangan. Tadqiqotda tatar, turkman va ozarbayjon tillari bo'yicha "bosh" va "ko'z" komponentli frazeologik birliklar qiyosiy tahlil qilgan. Sh.R.Usmonova "O'zbek va turk tillarida somatik frazeologizmlar" (1998) ilmiy ishida somatik frazeologizmlarning leksik-semantik va grammatik qurilishini o'rgangan. Turk tilida ham bu borada ko'plab ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Turk tillarining somatik frazeologizmlarini o'rgangan olimlar ibora yasashda "bosh" so'zini eng faol soma, deb ko'rsatishadi. Masalan, T.Aktash o'zining dissertatsiya ishida iboralar va ularning maydonlari haqida ma'lumot berar ekan, S.Nekiy Isenbetning "Tatar Tëlññ Frezëologik Sülzëğë" nomli asarida "bosh" va "bosh"ga tegishli 18 ta organ nomlari bilan ifodalangan 2468 ta iboralarni



aniqlagan. [Aktaş, 2013]. Shu bilan birga boshqa turkiy tillarda ham mazkur mavzu doirasida yozilgan ilmiy ishlar mavjud bo'lib, ularning bir qismi ikki turkiy tildagi mazkur til birliklarining qiyosiy tahliliga bag'ishlanadi.

Somatik frazeologizmlar tadqiqiga bag'ishlangan qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, aynan somatizmlarning polisemantik xususiyatlari, ularda ma'no ko'chish usullari borasida amalga oshirilgan chuqur monografik tadqiqotlar uchramaydi. Bu maqolada biz o'zbek va turk tillari somatizmlarida ko'p ma'nolilik hodisasini "bosh" leksemasi misolida ko'rib chiqamiz. Buning uchun biz o'zbek va turk tillarida yaratilgan mumtoz va zamonaviy asarlardan 10 tadan tanlab oldik va shu asarlarda bosh so'zining qanday ma'no qirralarida qo'llanganligini, ma'no ko'chish usullarini aniqladik.

Qiyosiy tahlildan maqsad biz bilan qardosh bo'lgan, madaniyatlarimizda, qadriyatlarimizda, tilimizda uyg'unlik bo'lgan turk xalqining milliy boyligi ya'ni turk tili va o'zbek tillaridagi tarixiy va zamonaviy sohadagi semantik o'zgarishlarni aniqlash, metafora va metonimik qiziqishlar va tillar o'rtasidagi munosabatni, tilning xatti-harakatlarini o'rganishdan iborat. O'rganish natijalari tilning madaniy kodini belgilashda, turk-o'zbek tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etishda hamda kompyuter tilshunosligida yaratilayotgan elektron lug'atlarda somatik maydonni shakllantirishda ham yaxshi imkoniyat berishi mumkin.

Tilimizdagi somatizmlar semantik nuqtai nazardan tilning asosiy leksik elementlari hisoblanadi. Tana a'zolarining nomlari etimologik jihatdan tabiat, jamiyat, o'sha davrdagi hayotning o'ziga xos xususiyatlarini o'zida mujassamlashtiradi. O'zbek tilining tarixiy va zamonaviy ko'rinishlari, shevalari o'rtasidagi turli ma'no munosabatlari e'tiborni tortadi. O'zbek tilida so'zlovchilarning tili, xulq-atvori nuqtai nazaridan, til tizimini belgilashda somatizmlarning manbalarda qanday ko'rinishini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Aytib o'tilganidek, somatizmlar til tarixining eng qadimgi va shu bilan birga eng faol leksik qatlami hisoblanadi. Ularning faolligi esa polisemiyaning yuzaga keltiradi. Somatik birliklarning ko'p ma'noliligi bevosita shaxslar, ularning dunyoni idrok etishi va voqelikka munosabati bilan bog'liq. Inson somatizmlardan foydalanib, o'z tafakkurida shakllanadigan dunyo manzarasini qayta gavdalandiradi. Bu shaxs nutqida somatik birliklardan foydalanishning yuqori ekanligida namoyon bo'ladi. Somatik birliklarning semantik tarkibiy qismini tadqiq qilish jarayonida ularning qo'llanish sohasi ancha kengligini, maqollarda, frazeologizmlarda, shuningdek obrazli asoslarni ochishda faol ekanligini e'tirof etish mumkin. "Bosh" so'zi misolida somatizmlardagi ko'p ma'nolilik xususiyatini ko'rib chiqamiz. O'zbek tilining izohli lug'atida "Bosh" so'zining 20 ta ma'nosi berilgan. Bosh so'zi turk tilida ham eng ko'p qo'llanadigan somatizm hisoblanadi. Turk tilining izohli lug'atida (bas)bosh so'zining 16 ta ma'nosi berilgan.

1. Tananing bo'yindan yuqorigi, oldingi (odamda, hayvonlarda) qismi; kalla.

-- Bo'ri polvon qabriston oralab yurdi. Boshini xam qilib yurdi. (T.Murod "Yulduzlar mangu yonadi")

-- Egarda o'tirgan navkar otning boshidan oshib, boshqa otlarning oyog'i tagiga uchib tushdi. (P.Qodirov "Yulduzli tunlar")

-- Mingboshi otining boshini yana torta turib, so'radi. (Cho'lpon "Kecha va kunduz")



-- Boshiga to'r yopgan Dildor yonida ko'ksi ordenga to'la Xolmatjon iljayib kelardi.(S.Ahmad "Ufq")

-- Boshidagi ro'molini yulqib olib yoniga tashladi. - Ish qolib ketyapti, xola!(O'. Hoshimov "Ikki eshik orasi")

-- Boshini baland ko'tarib, oyga tikilib o'tirar, chehrasida beparvolik ko'rinib turardi.(O'. Hoshimov "Dunyoning ishlari")

2. Aql-hush, miya;

-- Bo'ladigan bola boshidan ma'lum. (maqol)

-- Inim Yo'lchi, oltin boshing bor. (Oybek "Qutlug' qon")

--Nega boshimga shu fikr oldinroq kelmadiykin? (O'. Hoshimov "Dunyoning ishlari")

3. Boshliq, rahbar;

-- Tushundingmi? O'zing bosh bo'l. Qurga tartib bilan chiqar. Shoshma, etti o'lchab, bir kes. (T.Murod "Yulduzlar mangu yonadi")

-- Manavi talabgor Chori polvon o'z vaqtida Temir polvonga bosh-qosh bo'p, to'ylarga olib borgan, o'zining hunarlaridan ungada o'rgatgan ekan! . (T.Murod "Yulduzlar mangu yonadi")

-- Qachondir bir vaqt taxtga chiqish va shu yurgan hamma beklarga bosh bo'lib, g'olibona janglar qilish Boburning eng kuchli orzularidan edi. (P.Qodirov "Yulduzli tunlar")

-- Hazrat Alisher: «Bo'ladigan bola o'n besh yoshida bosh bo'lur, bo'lmaydigan odam qirq yoshida ham yosh bo'lur», der edilaru topilgan iste'dod o'spirin bo'lsa ham huzurlariga chorlar edilar. (P.Qodirov "Yulduzli tunlar")

-- Endi toleimga shu bola omon bo'lsin, bolalariga bosh bo'lsin, deb niyat qilardi Ikromjon. (S.Ahmad "Ufq")

-- Sholi o'rog'iga o'zi bosh bo'lishni bo'yniga oldi. (S.Ahmad "Ufq")

4. Lavozi, mansab jihatdan katta, yuqori turuvchi;

-- Kolxoz raisi bosh bakovul bo'ldi. (T.Murod "Yulduzlar mangu yonadi")

-- Sizni bosh hukmdorimiz, deb tan olurlar! O'lpon to'lagaymiz! Urushni to'xtating, hazratim! (P.Qodirov "Yulduzli tunlar")

-- Bosh sarkarda kim bo'lishini hazrat og'a-inilar o'zlari hal qilmoqlari kerak, — dedi. (P.Qodirov "Yulduzli tunlar")

5. Ulkan, katta, asosiy;

-- Birodarlar, biz bosh toboqni qizg'anayotganimiz yo'q. (T.Murod "Yulduzlar mangu yonadi")

--Mana Xorazmning bosh darvozasi. (i.Jabborov. Ko'hna xarobalar siri)

6. Eng muhim, asosiy, yetakchi;

-- Oldimizga turgan bosh vazifani belgilab olsak....(P.Qodirov "Yulduzli tunlar")

-- Adib bosh qahramon Bazarov obrazida hurfikrlilik va yangilik sari intilish kabi fazilatlarni mujassamlantirgan. (O'. Hoshimov "Dunyoning ishlari")

-- Birinchisida inson tug'ma olijanob fazilatlarni saqlab qola oladi, ammo yo'qchilikda ularni hech qachon va hech kim saqlab qola olmaydi», asardagi personajlaridan biri bosh qahramonga bu gapni hayotiy misollar asosida izohlab beradi. (O'. Hoshimov "Dunyoning ishlari")

--Huzuringizga kelishimning bosh sababi shundadir!—dedi Hasanali. (A.Qodiriy "O'tkan kunlar")

7.Eng oldingi, birinchi; bosh bola, bosh kelin.



- So'zning bosh qismi, g'oliban, ichda aytilgan edi. (Cho'lpon "Kecha va kunduz")
- Arsibashev M.P. (1878-1927) – XX asr boshlarida axloqiy buzuvchilik tashviq etilgan asarlari bilan mashhur bo'lgan rus yozuvchisi. (Cho'lpon "Kecha va kunduz")
- Peshona suyagi Tohirning qo'lga toshday qattiq tegdi, bosh barmog'i «qirs» etdi-yu, o'tkir bir og'riq miyasiga chiqib bordi. (P.Qodirov "Yulduzli tunlar")
- Bosh barmog'i shishib ketgan, qimirlatsa, og'rig'iga chidab bo'lmas edi. (P.Qodirov "Yulduzli tunlar")
- Bosh barmog'i bilan ko'rsatkich barmog'i orasidan nishini ko'rsatib tutdi. (T.Murod "Yulduzlar mangu yonadi")
- Satr boshidan xonning ta'rifini yuksaklarga ko'tarib: «Hazrati imomi zamon, xalifayi rahmon», deb yoza boshladi... (P.Qodirov "Yulduzli tunlar")

8. Odam, kishi(ko'chma);

- Bir boshga bir o'lim(maqol)
- Shu vaqt, devor uzra ro'molli boshlar qora berdi: ayollar davraga qaray berdi. . (T.Murod "Yulduzlar mangu yonadi")
- Bu bosh dunyoga kelib nimalarni ko'rmadiya? (A.Qodiriy "O'tkan kunlar")

9. Chorva hisobida har bir adad jonivor.(sanoq sonlar bilan) bir bosh sigir, uch bosh qo'y;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqal'a tumani "Ellikqal'a" ovul fuqarolar yig'inida istiqomat qiluvchi Ahmad Niyazimbetovga tegishli qo'ra 440 bosh qo'y-qo'zisi va echki-ulog'i bilan noma'lum sabablarga ko'ra yonib ketdi. (gazetadan)
- O'zbekistonda har ming kishiga 140 bosh sigir to'g'ri kelgan bir paytda, AQSHda bor-yo'g'i 40 bosh, Buyuk Britaniyada 44 bosh, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida 45-48 bosh sigir to'g'ri keladi.(internet)

10. Tik narsalarning tepa qismi, uchi, cho'qqisi;

- Tom boshidagi qamishdan sariq sumalak osilib, endi eruvgarchilik boshlanadi, deb turganimizda, sovuq avjiga chiqib qish qaytib keldi.(O'. Hoshimov "Ikki eshik orasi")
- Tog' boshiga g'ozlar qo'nganda, "O'sha g'oz" kelganini aytib, farzandini aldab ko'rdi—merga qushlarning ovozigina bir dam quloq tutib turdi-da, "yo'q" dedi, qovjiragan lablarini arang qimirlatib. (U.Azim "G'oz")
- Tutlar boshida malla qalpoq.(S.Ahmad "Ufq")
- Begim, tog'ning boshi qorsiz bo'lmas, yigitning boshi — xatarsiz.(P.Qodirov "Yulduzli tunlar")
- Tom boshida tog'ora, Tog'orada zog'ora... (Xalq qo'shiqlaridan)
- Uyda chaksa uni yo'q, tom boshida qo'sh tandir (maqol)

11. Biror marosim, tadbir, voqea- hodisaning ro'y berishi, amalga oshish jarayonidagi dastlabki bosqich;

- Yo'g'-e, yo'l boshi sizdan, polvon! — dedi. Tilovberdi polvon oldinda yurdi. Abray ketidan ergashdi. (T. Murod. "Yulduzlar mangu yonadi")
- Biz...» Bu «biz» so'zi tergovning boshidan beri juda ko'p takrorlandi.(Cho'lpon "Kecha va kunduz")
- Ishning boshi boshlanguncha (maqol)



-- Nega aksar hollarda to'y boshida fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari raislari yoki diniy-ma'rifiy ishlar bo'yicha mahalla maslahatchilari ko'rinmaydilar? (gazetadan)

12. Yon, old, tomon;

-- Risolat boshiga odam to'plab hamon dod ustiga dod solardi. (S.Ahmad "Ufq")

-- Mashaning hayhaylashiga qaramay, Ergashali akaning boshiga to'dalashib borgan do'stlari ustiga gumburlab mina tushdi-yu, o'n kishini parcha-parcha qilib tashladi.(O. Hoshimov "Ikki eshik orasi")

-- Lekin aqalli billa fashistni yer tishlatishni, qorga dumalab dod solibi hinqirayotgan, hov o'shanda olma tagida dadam so'ygan qo'ydek xirillab jon taslim qilayotgan bitta nemisni o'z ko'zim bilan ko'rishni, bilib qo'y, seni men o'ldirdim deb boshida kulib turishni judayam xohlar edim. (O. Hoshimov "Ikki eshik orasi")

--Tinmay ishchilarning boshiga borib-kelayotgan Rais yana baqira boshladi.(gazetadan)

--O'z bolasini baloga topshirib, g'ozni uchirgan bechora kampir bemor farzandining boshida qanday kun ko'rdi? (U.Azim "G'oz")

13.O'rin, karavot va shu kabilarning bosh qo'yiladigan yuqori tomoni; shunday o'rinda yotgan kishining beldan yuqori tomonidagi joy;

-- Qabr boshida tizzalab o'tirib, fotiha o'qidi. Oyoqlari ostida to'shalmish marmar toshtaxtani siladi. (T. Murod. "Yulduzlar mangu yonadi")

-- Hoji Kumushning boshiga kelib o'tirdi. (A.Qodiriy "O'tkan kunlar")

-- Shunda, onasi qabri boshida... oppoq marmar sag'ana ko'rdi! (T. Murod. "Yulduzlar mangu yonadi")

-- To'shagining bosh tomoniga xushbo'y sandal daraxtidan ishlangan javon qo'yilgan, otasining she'riy devoni javonning alohida tokchasida yolg'iz turar edi.(P.Qodirov "Yulduzli tunlar")

--Ertalab uyqudan ko'zini ochganida, bosh tomonida yon qo'shni xotinlardan Umrinisabibi o'tirardi. (Cho'lpon "Kecha va kunduz")

14. Ba'zi otlar bilan birikib, shu ot orqali ifodalangan narsaning o'zini yoki u o'rnashgan joyini , yon-atrofini bildiradi;

-- U o'rinlarni yig'ishtirib, nonushta joylarini tayyorlab bo'lgandan so'ng o'choq boshida choynaklarga choy tashlarkan: — Otamdan darak yo'q-ku? — deb so'radi onasidan. (Cho'lpon "Kecha va kunduz")

-- Zebining choy damlab kelishini kutib, uyda — dasturxon boshida o'tirgan Salti ikkala qanoti ochiq turgan eshik orqali bu holni ko'rganidan keyin o'rnidan turib, o'rtog'ining yoniga chiqdi. (Cho'lpon "Kecha va kunduz")

15. Cho'ziq , davomli, bo'yli narsalar, joy, maydonlarning boshlanish joyi yoki oxiri, etagi; shunday narsalarning ikki uchidan, chekkasidan, tomonidan biri;

-- Mehmonlar ko'cha boshida qora berishi bilanoq, Nabi oqsoqol ovoz berdi. (T. Murod. "Yulduzlar mangu yonadi")

-- Qabr boshida tizzalab o'tirib, fotiha o'qidi. Oyoqlari ostida to'shalmish marmar toshtaxtani siladi. (T. Murod. "Yulduzlar mangu yonadi")

-- Bizning g'allazorlar yo'q. Endigi Hayrondara boshdan-oyoq paxtazor... Raxtazor boshida suv tarayotgan suvchilar, yo'l bo'lsin, deydi. (T. Murod. "Yulduzlar mangu yonadi")



-- Olisda, yaxlit gulxanga aylangan qishloq ko'chasining boshida nemis ning oxirgi yuk mashinasi qorda sudralib, sirg'anib borardi. (O'. Hoshimov "Ikki eshik orasi")

16. Voqea, hodisaning , biror muddat yoki faslning , asar, matn va shu kabilarning boshlanish joyi, payti, avvali, muqaddimasi;

-- Qayta boshdan qo'shqo'llab-qo'shqo'llab ko'rishdi. (T. Murod. "Yulduzlar mangu yonadi")

-- Shuning uchun fiqh qonunlarini boshidan-oxirigacha bilib oling. Suratni men olib ketay. (P.Qodirov "Yulduzli tunlar")

-- Satr boshidan xonning ta'rifini yuksaklarga ko'tarib: «Hazrati imomi zamon, xalifayi rahmon», deb yoza boshladi... (P.Qodirov "Yulduzli tunlar")

-- Tengri taoloning inoyati bor ekandir, manga yangi boshdan jon bag'ishladi». Bobur o'z hayoti haqida bu qadar ochiqchasiga yozgani Xondamirni hayron qoldirdi. (P.Qodirov "Yulduzli tunlar")

-- Ayollardan maslahat, ayniqsa, o'z xotinidan bir taklif eshitmoq uchun Razzoq so'fining qayta boshdan bunyodga kelishi kerak bo'lardi. (Cho'lpon "Kecha va kunduz")

-- So'zlar boshda Miryoqubning g'alati savollaridan iborat bo'ldi: (Cho'lpon "Kecha va kunduz")

-- So'zning bosh qismi, g'oliban, ichda ay-tilgan edi. (Cho'lpon "Kecha va kunduz")

--Xatning boshida g'alati bir gap bor, siz qunt qilmay o'tdingiz. (Cho'lpon "Kecha va kunduz")

--Haftaning boshi eng og'ir payt. (internet)

17. Voqea,hodisa vas hu kabilarning boshlanishi uchun bahona bo'lgan narsa, dastlabki sabab;

--Ovsinimning oshi—janjalimning boshi. (maqol)

--Baxtni birovning ostonasidan qidirishning o'zi baxtsizlikning boshi. (A.Qahhor "Og'riq tishlar")

--Ammo muammoning boshi shundaki, aksariyat avtomaktablarda hatto o'z o'quv mashinasi ham yo'q

18. Ba'zi o'simliklarning kalla shaklidagi hosili, mevasi;

--Bir kun peshin kechroq Tohir xilvatxonaga uch-to'rt bosh oq kishmish uzum olib kirdi. (P.Qodirov "Yulduzli tunlar")

--Bobur quvonib uzumdan bir boshini qo'liga oldi. Bu erlarning tarixida birinchi marta etishtirilgan oq kishmish sal sersuvroq bo'lsa ham, lekin uning ta'mi Boburga Samarqandni eslatdi. (P.Qodirov "Yulduzli tunlar")

19. Karra, hisob. (sanoq sonlar bilan)

-- To'rt bosh qilib olmoq.

--Besh bosh qilib to'lamoq.

20. 3-shaxs egalik qo'shimchasi va jo'nalish o'rin-payt kelishigi, chiqish kelishigi qo'shimchalari bilan ko'makchi vazifasida qo'llanadi;

-- Xalqning boshiga yog'iladigan balolarni o'ylasam, bugungi jalalar selga aylanib, o'sha ko'prikn oqizib ketmaganiga afsus qilamen. (P.Qodirov "Yulduzli tunlar")

-- Tengri taoloning inoyati bor ekandir, manga yangi boshdan jon bag'ishladi». Bobur o'z hayoti haqida bu qadar ochiqchasiga yozgani Xondamirni hayron qoldirdi. (P.Qodirov "Yulduzli tunlar")



Bosh so'zi turk tilida ham eng ko'p qo'llanadigan somatizm hisoblanadi. Turk tilining izohli lug'atida ko'p ma'noli Baş (bosh) so'zining quyidagi ma'nolari haqida ma'lumot berilgan.

1. Baş; İnsan ve hayvanlarda beyin, göz, kulak, burun, ağız gibi organları kapsayan, vücudun üst veya önünde bulunan bölüm, kafa, ser. [inson va hayvonlarning bo'yin, ko'z, burun, og'iz kabi qismlari joylashgan tananing yuqorigi yoki oldingi qismi;] Baş örtüsü ağzına bağlı bembeyaz alınlı, siyah siyah gözlü bir kadın hayretle büyüyen gözlerle karşımızda, idi; Yaralı kocaman bir bozkurt arka ayakları üstünde oturuyor; korkunç, uzun başı ateşli gözleriyle gözlerimin içine bakıyordu.

2. Bir topluluğu yöneten kimse. [boshliq, rahbar;] Hem askerler gübem-tikenlerden bir fenets yürüp, başına koydular hem Ona al-ruba giydirdiler. Akıl yaşda bolmaz, başda bolar. Daha dünkü çocuklar başımıza şef, müdür kesildiler . Baş mühendis Harry Scott, bunu duyunca gözlerini açarak,

3. Başlangıç. [eng oldingi, birinchi;] Ve ilk baştaki işe yaramayan düşünceler de zihninizden silinecektir. En başta aldatma denince neyi anlamalıyız konuşmak gerekiyor. ilişkide karşımızdaki kaçırın şeylerin başında karşı taraftaki kişiyi tamamen değiştirmeye çalışmak ya da size uygun kalıplara sokmak için uğraşmak gelir.

4. Temel, esas. [asos,tamal;] Adeetä dä görä, Kurog koyardı içeri bir odundan adamcık-allaalık yapısı, idolcuk, yurtanın baş duvarına, da hepsi ona baş iilärdilar. Günümüzün en yaygın psikolojik hastalıklarının başında depresyon gelir.

5. Arazide en yüksek nokta. [tik narsalarning eng tepa qismi, uchi;] Ana yolun iki tarafında, başları göğe değen dağlar, üstleri iki yeşil duvar gibi çamlarla kaplı; tepeleri süt gibi beyaz bir berraklık içinde...

6. Bir şeyin genellikle toparlakça ucu. [biror narsaning odatdagi uchi;] Belkemiği çıtırçtır etti. Kolay mı, otuzdokuz yıl masa başında bükülmüştü bu bel, kamburlaşmıştı. Sokağın iki başı bizim partililerle dolmuştu

7. Bir şeyin uçlarından biri. [bo'yli narsalarning, joylarning boshlanishi yoki oxiri] Güzel bir sonbahar havasında şair, havuz başına uzanır gibi oturmuş, güneşleniyordu. Kataoatığın bir başında bir polis, öbür başında bir polis, durmadan bağırıyorlar: Radyo sandığına çiviler çakılmış, çivilerden üç tanesinin başı dışarıya doğru uzanmış ve kıvrılmıştı.'

8. Kasaplık hayvanlarda ve bazı yiyeceklerde tane. [hayvon yoki sabzavotlarning donasi] Yirmi baş koyun. On baş sığır. Üç baş soğan. başı baş kabak, uzun saçları, biráz bozlu, yeşil bir baş kabı

9. Para değiştirirken verilen veya alınan üstelik, sarrafiye. [pul almashtirishda, sarroflikda beriladigan yoki olinadigan ustama;] Eğer beğenirsem yazı başına beş lira veririm, işine geliyor mu?

10. Bir şeyin yakını veya çevresi. [biror narsaning yaqini yoki atrofi;] Basarbek, bir ordu başı, atlı gezeräk kurennär içindä askerci sıralamaa insanı, hem görüp, nicä Külen kocasının savaşılar derileri germää kurusunna; il bölmelerin başları ordu bölümlerinin komutanı; Ben meğer yirmibeş sene, o masanın başında, harbin dışında, harpten darpten habersiz sulh içinde yaşamışım

11. "Baş" kelimesi birçok deyimde "öz varlık, kendisi" anlamını taşıyan bir zamir niteliğindedir. [ba'zi idiomalarda yolg'iz ma'nosini ifodalaydi;] Yalnız arkasını görebildiğim



sarı uzun saçlı bir baş şüphesiz benim sabahleyin seyrettiğim gümüşî dumanlara dalmıştı. Tek başına hem çocuğuna bakıyor hem de çalışıyordu.

12. Önem veya yönetim bakımından ileride olan, en önemli, en üstün anlamında birleşik kelimeler yapar.[eng muhim , asosiy, yetakchi;] Konfüçyüs insanı başarılı yapan özellikler listesinin başına “güvenilir olma”yı koymuştur. «İnternational Hyster Corp.»un genel direktörü Türkiye'ye gidecek teknik uzmanların başı olan mühendis Harry Scott'a Türkiye'den gelen şikâyetlerin nedenlerini öğrenmek ödevini de vermişti.

13. Güreşte pehlivanların ayrıldıkları beş derecenin en yükseği.[kurashda polvonlarga beriladigan besh darajaning eng yuqorisi;] Baş pehlivan o yandan daldı, bu yandan girdi, tam bir saat... Sonunda berabere kaldılar.

14. "... başına" adlardan sonra ve nicelik anlatan kelimeden önce gelerek üleştirme anlamı verir. Beybaba kümes yaparken keseri çiviye vuruyorum diye baş parmağına indirmişti.

15. Deniz teknelerinde ön taraf. [dengiz qayig'ida old tomon;]

16. En uç, yüksek nokta veya en ön.[uch, yuqori yoki old;] Köprü başına gelince, — Kaçtı, kaçtı!... diye sesler duydum..

Bosh so'zining ma'nolarini o'zbek va turk tillaridagi qiyosini quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin:

O'zbek tilida	Bosh so'zining ma'nolari	Turk tilida
Odamning boshi, Otning boshi	1.Tananing bo'yindan yuqorigi, oldingi (odamda, hayvonlarda) qismi; kalla.	Ad başi kişi başi
Odam ko'rki bosh bilan.	2.Aql-hush, miya;	Akıl yaşıda bolmaz, başda bolar
Bosh bo'lmoq	3.Boshliq, rahbar;	ordu başi
Bosh prokuror, bosh vrach	4.Lavozim, mansab jihatdan katta, yuqori turuvchi;	baş mühendis
Bosh sovrin	5. Ulkan, katta, asosiy;	baş sofra yurtanın baş duvarı
Bosh sabab Bosh gap	6.Eng muhim, asosiy, yetakchi;	--
bosh bola, bosh kelin	7.Eng oldingi, birinchi;	--
Bir boshga bir o'lim	8.Odam, kishi(ko'chma);	sarı uzun saçlı bir baş
Uch bosh qo'y	9.Chorva hisobida har bir adad jonivor.(sanoq sonlar bilan)	on baş sığır
Tog'ning boshi	10.Tik narsalarning tepa qismi, uchi, cho'qqisi;	başları göğe degen dağlar



Ishning boshi	1111.Biror marosim, tadbir, voqea-hodisaning ro'y berishi, amalga oshish jarayonidagi dastlabki bosqich;	Duyunun boshi
Ishchilarning boshiga bormoq	12.Yon, old, tomon;	--
Karavotning boshi.	13.O'rin, karavot va shu kabilarning bosh qo'yiladigan yuqori tomoni; shunday o'rinda yotgan kishining beldan yuqori tomonidagi joy;	--
O'choqning boshi Dasturxon boshi	14.Ba'zi otlar bilan birikib, shu ot orqali ifodalangan narsaning o'zini yoki u o'rnashgan joyini yon-atrofini bildiradi;	havuz boshi
Daryoning boshi Yo'lning boshi	15. Cho'ziq , davomli, bo'yli narsalar, joy, maydonlarning boshlanish joyi yoki oxiri, etagi; shunday narsalarning ikki uchidan, chekkasidan, tomonidan biri;	çöp boshi teknenin boshi
Hikoyaning boshi Yil boshi	16. Voqea, hodisaning , biror muddat yoki faslning , asar, matn va shu kabilarning boshlanish joyi, payti, avvali, muqaddimasi;	hastalıklarının boshi
Janjalning boshi	17. Voqea,hodisa va shu kabilarning boshlanishi uchun bahona bo'lgan narsa, dastlabki sabab;	--
Bosh karam	18.Ba'zi o'simliklarning kalla shaklidagi hosili, mevasi;	üç baş soğan
O'n bosh qilib to'lamoq	19.Karra, hisob. (sanoq sonlar bilan)	--
Beva boshi bilan Ayol boshi bilan	20. 3-shaxs egalik qo'shimchasi va jo'nalish o'rin-payt kelishigi, chiqish kelishigi qo'shimchalari bilan ko'makchi vazifasida qo'llanadi;	boshından ayağına kadar
--	Para deǵıstırırken verilen veya alınan üstelik, sarrafiye.[pul almashtirishda, sarroflikda beriladigan yoki olinadigan ustama;]	

Natija va Xulosa

Dunyodagi hamma odamlar, har qanday millat, o'z tanasining bosh, oyoq, ko'z, quloq va boshqa tana a'zolariga qanday nom berilganini, qanday nomlanishini bilishadi. Somatizmlar har qanday insoniy jamiyatda zarur bo'lgan tushunchalar va munosabatlarni ifodalaydi, ularsiz odamlarning nutqini tasavvur qilish qiyin, va somatik lug'at ishlatilish tezligi va rivojlangan polisemiya bilan ajralib turadi.



Tahlil natijalariga ko'ra "bosh" so'zi har ikki tilda juda faol va ko'plab ma'no qirralariga ega. Etnografik shakllanishida, madaniyatida, urf-odatlarida mutanosiblik bo'lgan turk va o'zbek tillarining semantik xususiyatlarida ham umumiylik, o'xshashlik mavjud. Bu somatizmlarni qo'llashdagi ma'no nozikliklarida ham aks etgan. Bosh so'zi o'zbek tilida 20 o'rinda, turk tilida esa 16 o'rinda polisemantik xususiyatga ega ekanligini ko'rib o'tdik. Tarjima jarayonida o'zbek tilida mavjud bo'lgan to'rtta ma'no qirrasi turk tilida so'z birikmalar, iboralar orqali berilishi mumkin. Biz qiyosiy tahlilda 10 ta badiiy asardan foydalandik, bu esa o'zbek va turk tillarining milliy bo'yog'ini, barcha ma'no nozikliklarini ochib berolmagan bo'lishi mumkin.

References:

1. "O'zbek tilining izohli lug'ati"
2. "Buyuk turkcha so'zluq"
3. Вакк Ф.О. Соматические фразеологии в современном эстонском литературном языке: Автореф.дисс...канд. филол. наук.– Таллин, 1964.– С. 23.
4. Шанский Н.М. Лексикология современного русского языка. 2017, – Б. 104. 4.
5. Мугу Р.Ю. Полисемантизм соматической лексики (на материале русского немецкого языков): Дисс.... канд. филол. наук. – Майкоп, 2003. –С. 81-82 с.
6. S.Nekiy Isenbet "Tatar Tělēññ Frežėologik Sūzlėğě"
7. Sh.R.Usmonova "O'zbek va turk tillarida somatik frazeologizmlar"
8. A.Isayev "O'zbek tilining somatik frazeologik birliklari"(1976)
9. Nicolai Tufar "Türk Dilinde Meronimi: Organ Adları"